

**Aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymatini
va kambag'allik chegarasini hisoblash tartibi to'g'risida
uslubiy nizom**

Aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymatini va kambag'allik chegarasini hisoblash tartibi to'g'risida uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom deb ataladi) aholining real iste'mol xarajatlari, xususiyatlari va tarkibidan kelib chiqib, aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymati hamda kambag'allik chegarasini hisoblash tartibini belgilaydi.

Ushbu uslubiy Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keying o'rinlarda – GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Uy xo'jaliklari so'rovi natijalaridan kelib chiqib, minimal iste'mol xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasi hisoblab chiqiladi hamda ushbu ma'lumotlar aholi turmush darajasiga ta'sirini o'rganish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan qo'shimcha choralarni ishlab chiqishda asos bo'ladi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu uslubiy Nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflardan foydalaniladi:

uy xo'jaligi – ma'lum bir turar-joy manzilida birga yashovchi, daromadlari yoki mol-mulkini to'liq yoki qisman birlashtirgan hamda ayrim turdagi tovarlar va xizmatlarni (asosan uy-joy xizmatlari va oziq-ovqat mahsulotlarini) birgalikda iste'mol qiladigan shaxslar guruhi;

uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvi – uy xo'jaligi tanlanma kuzatuvi shakllanishi va taqsimlanishini aniqlash hamda ularning turmush darajasini kuzatishga yo'naltirilgan tanlanma so'rov usuli;

kambag'allik – aholi iqtisodiy imkoniyatlarining hayot kechirish uchun zarur minimal ehtiyojlarini qondirishiga yetarli darajada bo'lmashligi;

kambag'allik chegarasi – aholining real xarajatlari tarkibidan kelib chiqib hisoblanadigan bir kishi uchun minimal iste'mol xarajatlari qiymati;

minimal iste'mol xarajatlari (keyingi o'rinlarda – minimal xarajatlar) – uy xo'jaliklarining real iste'mol qiymatlari va tarkibini o'rganish asosida ularning sog'lom hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar hamda xizmatlar uchun minimal xarajatlarning hisoblangan qiymati;

minimal kilokaloriya – inson organizmining hayot faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan minimal energiyaviy qiymat;

prosentil – so'rovda ishtirok etgan uy xo'jaliklarini jon boshiga nisbatan jami xarajatlarga ko'ra 1 foizlik guruhlariga ajratish;

real iste'mol qiymati – so'rovnomada uy xo'jaligi tomonidan tovar va xizmatlar uchun amalga oshirilgan xarajatlarning puldagi ifodasi;

target guruhi – so'rovnomada ishtirok etgan respondentlar orasidan iste'mol xususiyatiga ko'ra ajratib olingan kichik guruh;

Engel koeffitsiyenti – uy xo'jaligining jami xarajatlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari qiymatining ulushi.

2. Ushbu uslubiy Nizom minimal iste'mol xarajatlarning uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv natijalari asosida aholining real iste'moli tarkibidan kelib chiqib, statistik usul orqali hisoblashga mo'ljallangan.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasida aholi minimal xarajatlari va kambag'allik chegarasini hisoblashda bir xil uslubiy yondashuvni ta'minlaydi.

3. Aholining minimal xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasini hisoblash ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

2- bob. Minimal xarajatlar va kambag'allik chegarasini hisoblashning statistik bazasi

4. Uslubiy Nizom GSBPMning yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish bosqichlari doirasida jamlanma va tanlanmani shakllantirish, ma'lumotlarni yig'ishni tashkil etish, ma'lumotlardagi xatoliklarni tekshirish, jamlanma ma'lumotlarni hisob-kitob qilish va shakllantirishni yakunlash, dastlabki statistik materiallarni tayyorlash hamda shakllantirishni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

5. Minimal xarajatlar qiymati va kambag'allik chegarasini hisoblashda:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (keyingi o'rinlarda – Statistika agentligi) tomonidan amalga oshiriladigan uy xo'jaligi

tanlanma kuzatuv natijalari asosida shakllanadigan aholi iste'moli, daromad miqdori va tarkibi;

uy xo'jaliklari iste'molining kilokaloriyadagi qiymatini aniqlash uchun oziq-ovqat mahsulotlarining energiyaviy qiymati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi.

3- bob. Minimal xarajatlar qiymatini hisoblash tamoyillari

6. Minimal xarajatlar qiymati quyidagi tamoyillarga asoslanib hisoblanadi:

aholi tanlovi va moliyaviy imkoniyatlari kabi iste'mol tarkibiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning inobatga olinganligi;

aholining oziq-ovqat mahsulotlari iste'moliga sarflagan amaldagi xarajatlarni e'tiborga olinganligi;

aholining real talabidan kelib chiqib hamda demografik holatning o'ziga xosligini inobatga olgan holda, nooziq-ovqat mahsulotlar turlari va tarkibining inobatga olinganligi;

aholining zarur xizmatlar xarajatlari qiymatini hisoblashda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan bepul xizmatlarning e'tiborga olinganligi;

minimal xarajatlar qiymati aholi real iste'moli tarkibidan kelib chiqqanligi sababli ularda boqimandalik kayfiyatini rag'batlantirishga yo'l qo'yilmasligi;

minimal xarajatlar qiymatini aholi bilan bevosita so'rov o'tkazish orqali aniqlanishi.

4- bob. Minimal xarajatlarni hisoblash bosqichlari

7. Minimal xarajatlarni hisoblash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

birinchi bosqichda, Statistika agentligi tomonidan joylarga chiqqan holda uy xo'jaliklarining iste'moli, daromadi va yashash sharoitini inobatga oluvchi so'rovnoma o'tkaziladi;

ikkinchi bosqichda, Statistika agentligi tomonidan uy xo'jaliklari kesimida iste'mol qilingan oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar hamda xizmatlar qiymati real iste'mol qiymatidan kelib chiqib, target guruhi uchun respublika o'rtacha narxlarida hisoblab chiqiladi;

uchinchi bosqichda, uy xo'jaliklarining aholi jon boshiga iste'mol hajmidan kelib chiqib, o'sish tartibida detsillarga (10 foizlik guruh) bo'linadi va eng kam iste'molga ega bo'lgan birinchi uch guruhdagi uy xo'jaliklari (target guruhi) ajratib olinadi;

to'rtinchi bosqichda, kambag'al aholining oziq-ovqat mahsulotlari xarajati asosida bir kilokaloriyaga sarflangan qiymat aniqlanadi;

beshinch bosqichda, bir kilokaloriya qiymati Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti taklif etgan energiya qiymatiga (2200 kkal) ko'paytirilib, minimal oziq-ovqat xarajatlari aniqlanadi;

oltinchi bosqichda, target guruhining umumiy xarajatlaridagi oziq-ovqat mahsuloti ulushi aniqlanadi;

yettinchi bosqichda, minimal oziq-ovqat xarajatlarini Engel koeffitsientiga bo'lish orqali bir kishi uchun minimal xarajatlar aniqlanadi.

5- bob. Minimal xarajatlarni hisoblash tartibi

8. Uy xo'jaliklari tomonidan oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlarga sarflangan iste'mol xarajatlari qiymati real iste'mol narxlaridan kelib chiqib, respublika o'rtacha narxlariga o'tkaziladi.

$$M_n = m_n * N_n$$

Bunda:

M_n - uy xo'jaligi tomonidan n turdagi mahsulot iste'moliga sarflangan xarajatlarning target guruhi uchun o'rtacha respublika narxlaridagi qiymati;

m_n - uy xo'jaligi tomonidan n turdagi mahsulot iste'moli miqdori (kg, litr, dona va boshqalar);

N_n - n turdagi mahsulotning real iste'mol narxlarining o'rtacha respublika narxi.

Misol uchun, uy xo'jaligi bir oyda 5 kg kartoshka iste'mol qilsa, bunda ushbu mahsulotning respublikadagi o'rtacha narxi 4500 so'mni tashkil etsa, bu holda:

$$M=5\text{ kg}\cdot4500\text{ so'm/kg}$$

9. Uy xo'jaligi tomonidan iste'mol qilingan oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlarning yig'indisi orqali uy xo'jaligi jami o'rtacha oylik iste'mol xarajatlari qiymati aniqlanadi.

$$JI_m = OX_m + NOX_m + XX_m$$

Bunda:

JI_m - m uy xo'jaligining jami iste'mol xarajatlari qiymati;

OX_m - m uy xo'jaligining oziq-ovqat mahsulotlariga sarflangan jami xarajatlari qiymati;

NOX_m – m uy xo‘jaligining nooziq-ovqat mahsulotlarga sarflangan jami xarajatlari qiymati;

XX_m – m uy xo‘jaligining xizmatlarga sarflagan jami xarajatlari qiymati.

Har bir uy xo‘jaligining jami iste‘mol xarajatlari qiymati uning a‘zolari soniga bo‘lish orqali aholi jon boshiga jami iste‘mol xarajatlari qiymati aniqlanadi.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi jami iste‘mol xarajatlari qiymatiga ko‘ra uy xo‘jaliklari tartiblanadi va protsentlarga bo‘linadi.

10. Uy xo‘jaliklarining oziq-ovqat mahsulotlari iste‘mol miqdoridan (kg, litr, dona va boshqalar) kelib chiqib, oziq-ovqat iste‘molining jami kilokaloriya qiymati aniqlanadi.

11. Uy xo‘jaliklari oziq-ovqat iste‘molining bir kilokaloriya qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$1 \text{ kkal} = \frac{OX_k}{IK_k}$$

Bunda:

1 kkal – uy xo‘jaligi iste‘mol qilgan 1 kilokaloriya qiymati;

OX_k – m uy xo‘jaligining iste‘mol qilgan oziq-ovqat xarajatlari;

IK_k – m uy xo‘jaligi iste‘mol qilgan kilokaloriya miqdori.

Masalan, 5 kishidan iborat uy xo‘jaligi kunlik oziq-ovqat iste‘moli uchun kuniga 11750 kkal va mahsulot uchun 53463 so‘m sarflangan bo‘lsa, u holda 1 kkal narxi quyidagicha hisoblanadi:

$$1 \text{ kkal} = \frac{53463}{11750} = 4,6 \text{ so‘m.}$$

12. Target guruhida bir kishi uchun o‘rtacha bir kilokaloriya qiymatini kunlik minimal kilokaloriyaga ko‘paytirish orqali kunlik minimal oziq-ovqat xarajatlarining qiymati aniqlanadi:

$$MOX = 1\text{kkal} * N\text{kkal}$$

Bunda:

MOX – kunlik minimal oziq-ovqat xarajatlari qiymati;

$N\text{kkal}$ – bir kishi uchun kunlik minimal kilokaloriya.

Kunlik minimal oziq-ovqat xarajatlari qiymatini 30,41 ga (365/12) ko‘paytirish orqali mazkur ko‘rsatkichning o‘rtacha oylik qiymati aniqlanadi.

Masalan, agar bir kilokaloriya narxi 4,6 so'm va bir kishi uchun kunlik minimal kilokaloriya 2200 ga teng bo'lsa, o'rtacha oylik minimal oziq-ovqat xarajatlari qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$MOX = 4,6 * 2200 * 30,41 = 304404 \text{ so'm.}$$

13. Uy xo'jaligining o'rtacha oylik jon boshiga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlariga sarflangan xarajatlarining umumiy xarajatlardagi ulushini aniqlash orqali har bir uy xo'jaligining Engel koeffitsiyenti hisoblanadi.

$$Eng_m = \frac{OX_m^j}{Jl_m^j} * 100\%$$

Bunda:

Eng_m – Engel koeffitsiyenti;

OX_m^j – m uy xo'jaligining aholi jon boshiga jami oziq-ovqat xarajatlari qiymati;

Jl_m^j – m uy xo'jaligining aholi jon boshiga jami xarajatlari qiymati.

Masalan, agar uy xo'jaligining jami iste'moli tarkibida oziq-ovqat xarajatlari

304 404 so'm, jami xarajatlari 439 860 so'm bo'lsa, u holda quyidagicha hisoblanadi:

$$Eng = \frac{304\,404}{439\,860} * 100\% = 69\%$$

14. Minimal oziq-ovqat xarajatlari qiymatini Engel koeffitsiyentining o'rtacha miqdoriga bo'lish orqali bir kishi uchun o'rtacha oylik minimal xarajatlar qiymati aniqlanadi.

$$MX = \frac{MOX}{Eng} * 100\%$$

Bunda:

MX – bir kishi uchun o'rtacha oylik minimal xarajatlar qiymati;

MOX – kunlik minimal oziq-ovqat xarajatlari qiymati;

Eng – Engel koeffitsiyenti;

Masalan, tanlangan guruh bo'yicha o'rtacha Engel koeffitsiyenti 69 foiz, minimal oziq-ovqat xarajatlari 304 404 so'm bo'lsa, u holda:

$$MX = \frac{304\,404}{69} * 100 \% = 439\,860 \text{ so'm}$$

15. Minimal xarajatlar hisoblangan yil bazaviy yil bo'lib, kelgusi yil uchun minimal xarajatlar oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar narxлари darajasidan kelib chiqib, indeksatsiya qilib boriladi.

Bunda iste'mol narxлари indeksi tarkibidagi oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlarning narxлари o'zgarishi va ularning minimal xarajatlardagi ulushları ko'paytmasining yig'indisi orqali minimal xarajatlardagi narxlar o'zgarishi hisoblanadi.

$$MX_{inf} = MOX_{ind} * Inf_{oo} + NOX_{ind} * Inf_{no} + XX_{ind} * Inf_{xiz}$$

Bunda:

MX_{inf} – minimal xarajatlardagi narxlar o'zgarishi;

MOX_{ind} – minimal oziq-ovqat xarajatlari minimal xarajatlardagi ulushi;

Inf_{oo} – iste'mol narxлари indeksi tarkibidagi oziq-ovqat mahsulotları narxining o'zgarishi;

NOX_{ind} – minimal xarajatlar tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi;

Inf_{no} – iste'mol narxлари indeksi tarkibidagi nooziq-ovqat mahsulotlar narxining o'zgarishi;

XX_{ind} – minimal xarajatlar tarkibida xizmatlarning ulushi;

Inf_{xiz} – iste'mol narxлари indeksi tarkibidagi xizmatlar narxining o'zgarishi.

Minimal xarajatlardagi narxlar o'zgarishini o'tgan davrdagi minimal xarajatlar qiymatiga ko'paytirish orqali xisobot davrida minimal xarajatlar qiymati aniqlanadi.

$$MX_t = MX_{t-1} * MX_{inf}$$

6- bob. Yakunlovchi qoidalar

16. Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini va kambag'allik chegarasini hisoblash uslubiyati BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi, BMTning Taraqqiyot dasturi, Jahon Banki, FAO, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotlari tomonidan berilgan tavsiyalarga asoslangan.

17. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichları "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari

asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.

18. Kambag‘allik darajasi – xarajati (yoki daromadi) minimal xarajatlar qiymatidan past bo‘lgan aholining jami aholiga nisbati orqali aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021- yil 27- avgustdagi 544-son qarori bilan tasdiqlangan “Aholining minimal iste’mol xarajatlari qiymati va kambag‘allik chegarasini hisoblash tartibi to‘g‘risida nizam”.

2. Система национальных счетов – 2008, Организация Объединенных Наций, Европейская комиссия, Организация экономического сотрудничества и развития, Международный валютный фонд и Всемирный банк, 2009 год.

3. Руководство по измерению бедности, Европейская экономическая комиссия Организации Объединенных Наций, Нью-Йорк и Женева, 2017 год.